

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN SUV XO‘JALIGI OBYEKTLARINING AVTOMATIK QURILMALARINI MONTAJ QILISH, TA‘MIRLASH VA ULARGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Suv xo‘jaligi obyektlarining avtomatik qurilmalarini montaj qilish, ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Suv xo‘jaligi obyektlarining avtomatik qurilmalarini montaj qilish, ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish

1. Suv xo‘jaligidagi avtomatik tizimlarning montaji;
2. Suv xo‘jaligidagi avtomatik texnik vositalarini sozlash;
3. Suv xo‘jaligidagi avtomatik texnik xizmat ko‘rsatish;
4. Avtomatik tizimlarni va vositalarini ekspluatatsiyasi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Suv xo'jaligidagi avtomatik tizimlarning montaji	Elektr montaj-Ishlab chiqarishda olib kelingan avtomatik vositalar, komplekt elementlar, priborlar va elektron elementlar (trioldlar, rezistorlar, kondensatorlar, yarimo'tkazgichlar sxemalari va boshqalar) shitalarda, devorlarda, platalarda o'rnatish va mahkamlashni o'z ichiga olgan holda ularni bir-biriga elektr ulanishi yoki yig'ish ishlari muhim o'rin tutadi. Uskunalarining bir qancha ketma-ketlikda elektr elementlarning sxemasi bo'yicha kontaktlarni va elektr simlarni uchlarini ulanishlarida tashqi va ichki elektr montaj ishlari bajariladi va uning tuzilishi o'rganish. Ichki elektr montaj ishlarida qurilma yoki vosita ichidagi montaj similar va kontaktlarini ulanishlari elektr elementlarning sxemasi bo'yicha bajarilishini bilish. Tashqi elektr montaj ishlarida simlar murakkab tizimning alohida funktsional bloklari yoki tugunlari o'rtasida murakkab elektr ulanishlarni (aloqasini) amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Ichki elektr montaj ikki turdagilari mavjud: devorlar (suvoqlar) ichida va maxsus temir beton konstruksiyalarda (quvurlar, latoklar, shaxtalar va boshqalar) bajarish usullarini tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	37,5 %	15 ta
2	Suv xo'jaligidagi avtomatik texnik vositalarini sozlash	Avtomatlashtirish tizimlarining normal ishlashi ko'p jihatdan asboblarning (priborlarning) va qurilmalarning to'g'ri o'rnatilishiga va montajiga bog'liq holda, Avvalo, muhandislik tizimining texnologik rejimi talablariga javob beradigan qurilma (o'lchov yoki tanlash nuqtalari) ni o'rnatish uchun to'g'ri joyni tanlash va uni ishlab chiqaruvchilarning loyihasiga va ko'rsatmalariga muvofiq o'rnatishni bilish, O'rnatish paytida asboblarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishning zarur qulayliklarini, shuningdek, tezkor almashtirishimizni ham hisobga olishish, Shitdagi yoki platalardagi ikkilamchi qurilmalar ishlab chiqaruvchining ko'rsatmasiga binoan qat'iy o'rnatilishi kerak, Avtomatlashtirish tizimlari, nazorat o'lchov asboblari, himoya va signalizatsiya vositalarining texnik holatini baholovchi ishga	12,5 %	5 ta

		tushirish sozlash paytidagi ularning rejim ko'rsatkichlarini aniqlovchi asosiy xujjat texnik hisobotini bilish, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
3	Suv xo'jaligidagi avtomatik texnik xizmat ko'rsatish	NO'A va A texnik xizmati va ta'mirlashini texnologiyasi va tashkil qilish, Nazorat ulchov asboblari va avtomatik vositalar ta'mirlashni bilish, Nazorat o'lchov asboblari va avtomatik vositalariga texnik xizmat ko'rsatish ularni uzoq muddatga soz ishlab turishini ta'minlash uchun o'tkazish, Texnik xizmat ko'rsatish ishlab turgan asbobni to'xtatib tarmokdan ajratib bajarish, Texnik xizmat ko'rsatish miqdori va muddatlari har bir nazorat o'lchov asboblari va avtomatik vositalari xususiyatlaridan kelib chiqib, yillik texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mir grafigiga asoslanib belgilash, farqlash va hayotiy-amaliy vaziyatlarda tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	32,5 %	13 ta
4	Avtomatik tizimlarni va vositalarini ekspluatatsiya	Tabiiy resurslardan foydalanish – o'zlashtirish, tabiiy resursdan foydalanish: dala, unumdor yer, o'rmon, suv resurslari, ov yoki baliq ovlash joylari kiradi, Texnik tizimni ekspluatatsiya qilish hayotiy tsiklining bosqichi yoki bosqichi bo'lib, unda uning sifati amalga oshiriladi, saqlanadi va tiklanadi. Ekspluatatsiya, umuman olganda, maqsadli foydalanish, tashish, saqlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni o'z ichiga oladi, Bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish, Texnikalardan foydalanish, Mehnatni ekspluatatsiya qilish - boshqa odamlarning mehnati natijalarini ayirboshlashsiz yoki evaziga tovar (xizmat, pul) berish orqali, qiymati qiymatidan past bo'lgan holda o'zlashtirish, Qurilishning qoidalari va normalari (SNiP). Elektr uskunalarning qoidalari. Mehnat kodeksi. Texnik yo'riqnomalar. Ishlab chiqarish korxonalaridan va inson mehnat faoliyatidan foydalanish hamda uskunalaridan foydalanish uchun normativ hujjat ishlarini olib borish uchun qo'llash, farqlash va amaliy vaziyatlarda tahlil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	17,5 %	7 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
-----	-----------------	-------	------------

1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

- 1) Bozorov E.O. Avtomatik tizimlarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi. (Darslik) Toshkent, 2024
- 2) A.Rahmatov. Avtomatlashtirish uskunalarini oʻrnatish, taʼmirlash va ishlatish. Kasb-hunar kollejlari uchun oʻquv qoʻllanma Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2008 y
- 3) M.I. Ismailov., A.D. Raxmatov. Avtomatik tizimlarning va elektr qurilmalarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi. II-qism. Toshkent – 2009 y.
- 4) A.D.Rahmatov., A.J.Isaqov., T.M.Bayzakov., R.F.Yunusov. «Elektr uskunalar ekspluatatsiyasi va taʼmirlash» (Darslik). T.: TIMI, 2009
- 5) N.R.Yusupbekov., B.I.Muhammedov., Sh.M.Gʻulomov. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. “Oʻqituvchi“ Nashriyot-matbaaijodiy uyi Toshkent-2011 y